

MAHALLA MUHITIDA XOTIN-QIZLARNING MILLIY-MADANIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA AVLODLARGA YETKAZISHDAGI ROLI

Qazaqova Zuhraxon Hamdamovna

UrDU mustaqil tadqiqotchisi

zuhraxonqazaqova@gmail.com

Tel: 97 856 35 55

ORCID 0009-0002-6200-2960

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqining milliy-madaniy qadriyatlarini saqlash va avloddan-avlodga yetkazish jarayonida mahalla muhitining o'rni, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-madaniy faoliyati tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor Xorazm vohasi mahallalarida shakllangan an'anaviy urf-odatlar, marosimlar va ularni tartibga solishda ishtirok etgan ijtimoiy institutlarga qaratilgan. Jumladan, katxudo, elti va hadimlar kabi an'anaviy institut vakillarining mahalla hayotidagi o'rni, marosimlarni saqlash, ularning amal qilish qoidalarini belgilash va avlodlarga yetkazishdagi ishtiroki yoritiladi. Xorazm mahallalari misolida xotin-qizlar milliy-madaniy xotirani saqlovchi va uni keyingi avlodlarga yetkazuvchi muhim ijtimoiy sub'ekt sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: mahalla, xotin-qizlar, milliy qadriyatlar, madaniy meros, Xorazm, urf-odat, an'ana, marosim, katxudo, elti, hadimlar, oila, avlodlararo vorislik, ijtimoiy institut, nomoddiy madaniy meros.

Kirish. Milliy-madaniy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy qiyofasi va ijtimoiy hayotini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, marosimlari, an'analari, axloqiy me'yorlari, oilaviy munosabatlari, mehmondo'stlik va hamjihatlik kabi qadriyatlari muayyan ijtimoiy muhitda saqlanadi va avloddan-avlodga o'tib boradi¹. O'zbek jamiyatida bunday muhitlardan eng muhimlaridan biri mahalla hisoblanadi va u o'zbek madaniyatida muhim o'rin tutadi. U ijtimoiy mavqei, millati hamda dinidan qat'i nazar insonlarni birlashtiradi, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi va har bir insonga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi².

Mahalla tarixan aholining hududiy birligi, ijtimoiy munosabatlar, o'zaro yordam, tarbiya, urf-odat va marosimlarni tartibga soluvchi o'ziga xos ijtimoiy-madaniy makon sifatida shakllangan. Mahallada insonning tug'ilishi, voyaga yetishi, nikoh qurishi, oila

¹ Худойбердиев Х.Х. Миллий маданиятимизнинг тараққиёти давр талабидир//Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor.-Б.1118-1123

² <https://uzbekistan.travel/ru/o/uzbekskeya-mahallya-tradiciya-skvoz-veka/>

barpo etishi va boshqa muhim hayotiy bosqichlari jamoa ishtirokida nishonlangan. Shu sababli mahalla muhiti milliy madaniyatning kundalik hayotda namoyon bo'lishi va davomiyligini ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biri bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek jamiyatida, ayniqsa Xorazm vohasi mahallalarida xotin-qizlar milliy-madaniy qadriyatlarini saqlash, ularni kundalik turmush va marosimlar orqali namoyon etish hamda keyingi avlodlarga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Mahalla muhitida shakllangan an'ana va urf-odatlarining avloddan-avlodga uzluksiz o'tishida xotin-qizlarning ijtimoiy-madaniy faolligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorazm mahallalarida qadimdan marosimlar, urf-odatlari va jamoaviy munosabatlarni tartibga solib turuvchi o'ziga xos ijtimoiy institutlar mavjud bo'lgan. Shulardan biri «Xadim» institutidir. U viloyatda turlicha atamalar bilan uchraydi. Jumladan, Honqada «elti», Yangiariqda «katxudo», deyiladi. Bu institut ayollar instituti bo'lib, ularning vakillari mahalla hayotida muhim vazifalarni bajargan. Ayniqsa, mavjud an'ana va marosimlarni saqlab qolish (masalan, marosimlarda aytiladigan duolar, qo'shiqlar, laparlar, allalar, maqol va matallar, kelin-qizlarga beriladigan pand-nasihatlari ayollar o'rtasida og'zaki ravishda uzatilib borgan. Bu esa nomoddiy madaniy merosning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.), ularni muayyan ijtimoiy ehtiyojlar asosida takomillashtirish, yangi marosim va urflarni joriy etish, ularning amal qilish tartib-qoidalarini belgilashda asosiy rol o'ynaganlar. Elti instituti esa, ayniqsa, nikoh va to'y bilan bog'liq munosabatlarda xotin-qizlar dunyosi bilan bevosita aloqador bo'lgan an'anaviy institutlardan biri sifatida ahamiyatlidir. Eltining vazifasi sovchilik, ikki oila o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish, marosimlarga tayyorgarlik kabi jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarda namoyon bo'lgan.

Ayniqsa, xotin-qizlar bilan bog'liq to'y-marosimlar, nikoh, kelin salom, beshik to'yi, aza va boshqa marosimlarda mazkur institut vakillarining ishtiroki katta bo'lgan. N.Lobacheva³ o'zining tadqiqotlarida o'tgan asrning o'rtalaridagi nikoh to'yi marosimlari haqida yozar ekan, Xorazmda «qalim puli» olish jarayonidagi «katxudo»ning ishtiroki masalasiga e'tibor qaratadi. U «ota kalim pulini belgilaydi, ammo, bu xaqda qudalar bilan katxudo gaplashadi»⁴, deb yozadi. Zotan, qizlarning qalim pullari haqida gapirish ota-ona uchun juda og'ir bo'lgan va odob yuzasidan katxudo tizimiga murojaat qilingan.

Katxudo –erkaklardan ham, ayollardan ham bo'lishi mumkin. Ammo, elti va xadim yoshi katta ayollardan saylanadi. Ularning asosiy vazifasi mahalladagi katta avlod vakillari sifatida an'analarning bajarilishini nazorat qilish, yosh avlodga ularning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat. Shuningdek, marosim madaniyatining o'ziga xos me'yori va qoidalarini shakllantirib, ularni xotin-qizlar orqali oila va mahalla doirasida keyingi avlodlarga yetkazishgan. Jumladan, ular to'y marosimlarining asosiy

³ Лобачева Н.П. Некоторые черты семьи Хорезмских узбеков в середине XX в. //ЭО..1993.№ 3. –С.58-59

⁴ Ўша жойда

nuqtalarida, ya'ni qudalarga qizning va to'yning sarpolarini tayinlash va ularni me'yorda ushlab turishga xarakat qiladilar. Bu borada Xorazmda «eldan chiqmasdan» to'y marosimlarini bajarilishini ta'minlaydilar. Ular tuy va marakalarda marosimlarni ketma-ket bajarilishini nazorat qiladilar. Jumladan, nikoh marosimlarida dasturxonga qo'yiladigan oziq-ovqatlar, choy tashish, to'y ishtirokchilariga beriladigan sovg'alar, dasturxon almashish, kelin kiyintirish, yor-yor aytish, kelinni uzatish vaqti kabi jihatlariga e'tibor qaratadilar. N.Lobacheva Shovot tumanidagi «xodim»larning shu jixatlariga e'tibor qaratarkan «Xodim (yoki xodim-aya) — Xorazmdagi xotin-qizlar jamoasida rasmiy to'y jarchisi va to'y marosimlarini boshqaruvchi ayol hisoblangan», deydi. Uni kelin yoki kuyovning ota-onasi to'yning barcha bosqichlarini o'tkazish uchun yollagan va asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatgan: Jamoani xabardor qilish: u uyma-uy yurib, ayollarni to'yga (to'y) taklif qilgan. Qizlar yig'ilishi (qiz yignash)ni tashkil qilish: to'y arafasida dugonalarning yig'ilishi marosimiga rahbarlik qilgan. Kelinni tayyorlash: soch tarash (soch tarash) marosimini nazorat qilgan; bu jarayonda soch taralib, 40 ta mayda o'rim qilib o'rilgan. Kelin libosini kiydirishga yordam berish: bosh ustoz — yanga bilan birgalikda marosim libosi (nikoh-kuylak)ni kelinga kiydirishda yordam bergan. Sovg'a-salomlarni yig'ish: mehmon ayollar tomonidan keltirilgan sovg'a va ehsonlarni hisobga olib borgan. Xozirgi kunda ham bu institut vakillari vohada to'liq faoliyat yuritadi. Muhim farqli jihati shundaki, o'tgan asrda ularning taklif qilgan qoidalari bajarilishi shart bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrda to'y yoki maraka egasining buyruqlarini ko'proq bajaradilar.

Shu nuqtai nazardan, Xorazm mahalla muhitida xotin-qizlarni milliy-madaniy qadriyatlarning passiv ijrochisi sifatidagina emas, balki ularni saqlovchi, qayta talqin qiluvchi va avlodlarga yetkazuvchi faol ijtimoiy-madaniy sub'ekt sifatida baholash mumkin. Zero, mahalladagi marosim va urf-odatlarining davomiyligi ko'p jihatdan xotin-qizlarning oilaviy tarbiya, marosimlarni tashkil etish va jamoaviy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu institutlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular an'analarni shunchaki saqlab qoluvchi emas, balki ularning ijtimoiy hayotda amal qilish mexanizmlarini ta'minlovchi vositalar bo'lgan. Ya'ni an'ana muayyan jamoda saqlanishi uchun uni biladigan, tushuntiradigan va amalda bajarilishini nazorat qiladigan shaxslar ham zarur bo'lgan. Bu nuqtai nazardan katxudo, elti va hadimlarni mahalladagi an'anaviy madaniy regulyatorlar sifatida baholash mumkin.

Xorazmda ayollar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan ana shunday an'analardan biri oy yotiq chiqqan kunlarda o'tkaziladigan marosimlar bilan bog'liq. Mahalliy tasavvur va an'anaviy tajribaga ko'ra, ikki yo'l kesishgan joy — Xorazmda «to'rt yo'l bandi» deb ataladigan chorrahada «is chiqarish» marosimi tashkil etilgan. Unda bo'g'irsoq pishirish, «qorma» tayyorlash va tayyorlangan taomlarni mahalla

aholisiga tarqatish kabi amallar bajarilgan⁵. Mazkur marosimning e'tiborli jihati shundaki, uni tashkil etishda xotin-qizlar faol ishtirok etgan. Ayollar marosimga zarur tayyorgarliklarni ko'rish, taomlarni tayyorlash, ishtirokchilarni jalb etish va tayyorlangan taomlarni aholi o'rtasida tarqatish ishlarini amalga oshirganlar. Shu orqali ular nafaqat qadimiy marosimning tashqi shaklini saqlab qolgan, balki uning tarkibidagi jamoaviylik, saxovat, o'zaro yordam va aholi o'rtasidagi birdamlik kabi qadriyatlarni ham keyingi avlodlarga yetkazganlar.

Bunday misollar xotin-qizlarning mahalla hayotidagi o'rni faqat oila va ro'zg'or doirasi bilan cheklanmaganini ko'rsatadi. Ayollar mahalladagi madaniy jarayonlarni tashkil etuvchi, ularning davomiyligini ta'minlovchi va jamoa xotirasida saqlab qoluvchi muhim ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo'lganlar. Ayniqsa, katta yoshli ayollarning marosimlarga rahbarlik qilishi, yosh qizlarni ularni bajarish jarayoniga jalb etishi orqali marosimlarga oid bilim va ko'nikmalar og'zaki hamda amaliy tarzda avloddan-avlodga o'tib borgan. Bu jarayonda «bilimni amalda uzatish» tamoyili muhim ahamiyatga ega. Ya'ni yosh avlod qadimiy marosimlar haqida faqat eshitibgina qolmagan, balki ularda bevosita ishtirok etgan. Masalan, yosh qizlar katta ayollar bilan birgalikda bo'g'irsoq tayyorlash, qorma pishirish, marosim uchun joy hozirlash va aholiga taom tarqatish kabi jarayonlarda qatnashgan. Natijada marosimning amaliy qoidalari, unga bog'liq tushunchalar va jamoaviy munosabatlar yosh avlodning kundalik hayot tajribasiga singib borgan. Shu jihatdan xotin-qizlarni milliy-madaniy qadriyatlarning «saqlovchisi» deb atash bilan birga, ularni madaniy vorislikning faol sub'ekti sifatida baholash maqsadga muvofiq. Chunki ayollar mavjud an'analarni shunchaki takrorlamaydi, balki ularni yangi avlod ishtirokida qayta jonlantiradi, mahalla ehtiyojlari va zamonaviy sharoitga moslashtiradi.

Xorazm mahallalaridagi «is chiqarish» kabi marosimlar shu ma'noda nafaqat o'tmishdan qolgan urf-odat namunasi, balki mahalliy jamoaning tarixiy xotirasi va ijtimoiy birdamligini namoyon etuvchi madaniy hodisa sifatida ahamiyatlidir. Marosim jarayonida taom tayyorlash va uni aholiga tarqatish orqali saxovat va birdamlik, umumiy tadbirida ishtirok etish orqali jamoaviylik, katta avloddan kichik avlodga amaliy bilimlarning o'tishi orqali esa avlodlararo vorislik ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan, Xorazm mahallalarida xotin-qizlarning marosimlarni tashkil etishdagi faolligi milliy-madaniy qadriyatlarni saqlashning o'ziga xos ijtimoiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ayollarning tashabbusi bilan qadimiy marosimlarning qayta amalga oshirilishi mahalliy madaniy xotiraning uzluksizligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini oshirish davlat siyosati darajasida ham muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi PF-87-son «Oila va

⁵ Дала ёзуви. Шовот тумани. Бешмерган маҳалласи. 2024 йил

xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, ta'lim olishi, kasbiy salohiyatini rivojlantirish va jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Mazkur yondashuvni mahalla muhitidagi milliy-madaniy jarayonlar bilan bog'laydigan bo'lsak, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi faqat iqtisodiy yoki siyosiy sohalaridagina emas, balki madaniy hayotda ham muhim ahamiyatga ega ekanini ko'ramiz. Chunki mahallada milliy urf-odat va marosimlarni saqlash, ularni zamonaviy avlodga yetkazish, milliy hunarmandchilik, taom tayyorlash madaniyati, oilaviy va marosimiy an'analarni davom ettirish kabi jarayonlarda xotin-qizlarning ishtiroki katta. Shu ma'noda davlat tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan e'tiborni milliy-madaniy merosni asrash vazifalari bilan uyg'un holda ko'rib chiqish mumkin. Xotin-qizlar uchun yaratilayotgan ijtimoiy imkoniyatlar ularning mahalla va jamoat hayotidagi faol ishtirokini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida mahalliy madaniy an'analarni o'rganish, hujjatlashtirish, yoshlarga o'rgatish va ularni zamonaviy sharoitda davom ettirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda Xorazm mahallalari misolida xotin-qizlarning milliy-madaniy qadriyatlarni saqlashdagi faoliyatini o'rganish bugungi jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-madaniy mavqeini anglash nuqtai nazaridan juda ham muhimdir. Ayollar tashabbusi bilan saqlanib kelayotgan qator marosimlar mahalliy madaniy merosning tirik shakllari bo'lib, ular orqali tarixiy xotira, jamoaviylik va avlodlararo madaniy vorislik davom ettirilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Лобачева Н.П. Некоторые черты семьи Хорезмских узбеков в середине XX в. //ЭО..1993.№ 3. –С.58-59
2. Лобачёва Н.П. Некоторые черты семьи хорезмских узбеков в середине XX в.; Из традиционного быта каракалпакской молодёжи / Этнографическое обозрение. 1999, №3; 2003, №1
3. Сазонова М.В. К этнографии узбеков Южного Хорезма (Полевые исследования Южноузбекского этнографического отряда Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1946-1948 гг.) // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т. I. М., 1952
4. Сазонова М.В. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. Л., 1978
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 мартдаги ПФ-87-сон «Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони
6. Худойбердиев Х.Х. Миллий маданиятимизнинг тараққиёти давр талабидир//Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 10ISSN 2181-1784Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947Advanced Sciences Index Factor.-Б.1118-1123